



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№4(2)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 324 sahifa,
13-aprel, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Alohida ehtiyojga muhtoj bolalarga matematika darslarida integratsion yondashuvni amalga oshirish	10
Mamadjanova Ma'muraxon Kadirjanovna	
O'quvchilarda raqamli madaniyatni shakllantirishning nazariy asoslari.....	13
Boltayeva Go'zal Komilovna	
Inkluziv ta'lim sharoitida o'qituvchilarning metodik tayyorgarligini aniqlash metodologiyasi	21
D. Sh. Jo'rayeva, J. A. Jovliyev	
Bolalarda leksik-grammatik nutq kamchiliklarini bartaraf etishda kontekstli texnologiyalardan foydalanish	25
Abdullayeva Yoqutjon Qalandar qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasi	30
Abduvaliyeva Sabina Kurbonali qizi	
O'g'il bolalarni oilaviy munosabatlarga tayyorlashning pedagogik-psixologik asoslari.....	35
Aripov Shokirjon Olimovich, Raxmatillayeva Sug'diyona Muhammadjon qizi	
Pedagogik intuitsiyani rivojlantirishga yo'naltirilgan zamonaviy metodikalar	39
Axmedov Jaloliddin Oribovich	
The Impact of AI-Generated English Learning Materials Based on Uzbek Rural Life on the Learning Motivation of Rural Students.....	42
Baxramova Malika Muzaffarovna	
Raqamli kutubxonalarda sun'iy intellekt imkoniyatlaridan foydalanish texnologiyalari va imkoniyatlari	47
Choriyeva Zarina Anvarbek qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida orfografik savodxonlikni shakllantirishning nazariy-pedagogik asoslari ...	50
D. Teshaboyev, M. Sotvoldiyeva	
Oliy ta'limda tblt metodik modeli asosida baholash tizimini takomillashtirish	53
Djurayeva Nargiza Kudratillayevna	
Yangi O'zbekiston ta'lim tizimida pedagogik etikaning rivojida xorijiy mamlakatlar tajribasi.....	59
Dushayeva Nazokat Sharofiddinovna	
Uilyam Shekspir tragediyalarining o'zbek adabiyotidagi o'rni.....	62
Ergasheva Mehriyona	
Qizlarning oilaviy kompetensiyasi uchun ijodiy pedagogika: Koreya dizayn ta'limi modelini O'zbekiston kontekstiga moslash.....	65
G'ayratova Mohidil Zafar qizi	
Jismoniy tarbiya darslarida va darsdan tashqari mashg'ulotlarda umumrivojlantiruvchi mashqlardan foydalanish metodikasi	69
Maksetova Nurjamal Kuatovna	
Integrativ ta'lim muhitida bo'lajak surdopedagoglarning metodik kompetensiyalarini shakllantirish	72
Malikova Xurshida Ikramovna	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarda ko'p uchraydigan tovush talaffuzi kamchiliklari va ularni bartaraf etishda lopedik usullar.....	75
Moxirabonu G'aniyeva Adxam qizi	
Talabalarga an'anaviy xonandalik ijrochiligini o'rgatishning pedagogik yondashuvlari.....	78
Muxammadova Ozoda Muzrabovna	
Hayotiy sifat tushunchasini psixologik mazmuni.....	82
N. G. Pulatova	
Inklyuziv ta'lim sharoitida alohida ehtiyojlarga ega o'quvchilarni qo'llab-quvvatlashning kompleks yondashuvlari	85
Nazarova Dildora Asatovna, Abdurashidova Feruza Qaxramonovna	
Inklyuziv ta'lim tizimida o'qituvchining ko'p qirrali pedagogik faoliyati va uning nazariy asoslari	89
Nazarova Dildora Asatovna, Axmedova Aziza Temurovna	



Xo'ja ahmad Yassaviy e'tiqod tarbiyasi haqida.....	93
<i>Norova Sevara Uyg'un qizi</i>	
Matritsa va uning determinanti mavzusini o'qitish orqali bo'lajak iqtisodchilarning analitik tafakkurini rivojlantirish texnologiyalari.....	97
<i>Nuriddinov Jalolxon Tursunboy o'g'li, Otaboyev Muxsinjon Muqimjonovich</i>	
Odam anatomiyasi darslarida interfaol va multimedia vositalaridan foydalanish yo'llari.....	104
<i>Nurmatov Norqobil Jo'rayevich, Qo'chqorova Moxira Dilmurod qizi, Boxodirova Nilufar Ikrom qizi</i>	
AQSh ta'lim tizimining o'ziga xos jihatlari va bugungi kundagi rivojlanishi.....	110
<i>Orishev Jamshid Bahodirovich</i>	
Boshlang'ich sinf ona tili darslarida nutqiy kompetensiyalarini shakllantirishda xorijiy ta'limi tajribalari.....	116
<i>Pardayeva Gulbahor Jalg'ashovna</i>	
Kreativ ta'lim texnologiyalarining pedagogik mohiyati.....	119
<i>Sariboyev Nurali Abdunazarovich</i>	
Shaxsga yo'naltirilgan ta'limning zamonaviy pedagogik tizimdagi o'rni.....	122
<i>Siddiqov Azamat Muhammadjon o'g'li</i>	
Konstruktiv yondashuv asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarida 4K ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi.....	126
<i>Sobirova Sarvinoz Quvondiqovna</i>	
Criteria of Scientific Activity Implementation of Physical Culture Education Students.....	133
<i>Sapayev Ruzmat Radjapovich</i>	
O'smir yoshdagi o'quvchilarning ma'naviy ehtiyojlarini shakllantirishning nazariy asoslari.....	136
<i>Tilovova Qizlarxon Ishpulat qizi</i>	
PIRLS tadqiqotida so'rovnomalarning qamrov doirasida maktab muhiti.....	141
<i>To'qliyeva Matluba Boqiyevna</i>	
Onlayn til o'rganish platformalarining esl o'quvchilarining og'zaki nutq ishonchi (speaking confidence) ga ta'siri.....	146
<i>Tojiboyeva Shohistaxon, Omonova Nargiza</i>	
Katta maktabgacha yoshdagi bolalarda dialogik nutqni rivojlantirishda kommunikativ o'yinlarning ahamiyati.....	151
<i>Toshpo'latova Sevinch O'ral qizi</i>	
Maktab o'quvchilarining jismoniy sifatlarini tarbiyalashning samarali uslublari.....	155
<i>Turdiyev Azam Xasanovich</i>	
O'quvchilarda tayanch kompetensiyalarni rivojlantirishda xalqaro baholash tizimini tatbiq etish imkoniyatlari.....	158
<i>Turobov Mamarajab Sodiq o'g'li</i>	
Maktabgacha ta'limda ijodiy va mantiqiy fikrlashni rivojlantirish.....	163
<i>Umirzoqova Surayyo Xudoyberdiyevna</i>	
Talabalarda perspektiv tasvir bajarishga oid ko'nikmani shakllantirishda CAD dasturlaridan amaliy foydalanish imkoniyatlari.....	165
<i>Valiyev A'zamjon Nematovich, Toxirov Sardorbek Muzaffar o'g'li</i>	
Duduqlanishni bartaraf etishda qo'llaniladigan usullar va vositalar.....	173
<i>Xasanova Barnoxon Abdusattor qizi</i>	
Boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'quvchilarning yozma nutqini rivojlantirish usullari.....	176
<i>Xudoyberdiyeva Dildora Nazarjon qizi, Mambetova Lobar Mirzavali qizi</i>	
Duduqlanishga ega bolalar nutqini rivojlantirishda kompleks korreksion ishlar tizimi.....	179
<i>Xusanova Nozimaxon Zuxriddin qizi</i>	
Sirdaryo viloyatida tabiat va mehnat jarayonlarining tasviriy san'at orqali estetik va ekologik ifodasi.....	182
<i>Yorlaqova Malika Ahmad qizi</i>	
The Relevance of Artificial Intelligence in Teaching the English Language.....	186
<i>Yusupova Gulnoza Mirzoyevna</i>	
Umumta'lim maktabida boshlang'ich sinf o'quvchilarida kuzatiladigan nutq xususiyatlari.....	189
<i>Zairova Nigora</i>	



MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Teatr texnologiyalarini maktabgacha ta'limga integratsiya qilishning pedagogik shartlari	193
<i>Abdullayeva Aziza Abdurazzoq qizi, Salimova Dilmira Farxodovna</i>	
Педагогические технологии совершенствования физических качеств как основы здорового образа жизни	197
<i>Журабаев Абдукарим Маматкулович</i>	
Формирование духовно-нравственной компетентности будущих учителей как педагогическая проблема	200
<i>Зокиржонova Ф. Р., Рихситиллаева Д. Р., Меликузиева Ш. А.</i>	
Межкультурный диалог как инструмент воспитания гармоничной личности в школе	203
<i>Махмудхожаев Ориф Бахтиёрович</i>	
Talaba yoshlarining ma'naviy madaniyatini rivojlantirishda zamonaviy yondashuvlar	205
<i>Xojametov Ajiniyaz Andriyanovich</i>	
Методика формирования познавательных интересов у младших школьников в процессе выполнения творческих заданий на уроках русского языка	207
<i>Юлдашева Тахмина Бону Гайратовна</i>	
Raqamli ta'lim texnologiyalari asosida ingliz tili darslarida boshlang'ich sinf o'quvchilarini tinglab tushunishga o'rgatish usullari	210
<i>Abdurasulova Guljaxon Nabijon qizi</i>	
Fan va tabiatshunosligi asoslari mashg'ulotlarida tajribalar orqali bolalarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasi	215
<i>Abdusamatova Nargiza Jamolidinovna, Xudayberganova Muqaddam Abdurashitovna</i>	
Bakteriofaglar tuzilishi va turlari (T-faglar) va ularning mikrobiekotizimdagi o'rni mavzusini o'qitish metodikasi	222
<i>Abdunazarova Zulayxo Sharifqulovna, Xo'janazarov O'ktam Eshtemirovich, Samikova Sevinch Toshtemir qizi</i>	
Bulung'ur doston ijrochiligining musiqiy xususiyatlari va ularni ta'lim jarayonida o'rgatishning pedagogik asoslari	227
<i>Babajanov Baxodir Allaberganovich</i>	
Activation of Students' Learning Activities Using Didactic Games	230
<i>Daminova Munajat Abduvoxobovna</i>	
Bolalar ensiklopediyasi vositasida tarbiyalanuvchilarning atrof-olam haqidagi tasavvurlarini shakllantirishning metodik shart-sharoitlari	234
<i>Davlatova Guljaxon Kamoliddin qizi</i>	
Innovatsion yondashuv asosida talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlash metodikasini takomillashtirish	241
<i>Esanova Ro'shana Qurbonazarovna</i>	
Kreativ tafakkurning texnik muammolarni samarali hal qilishdagi o'rni va ahamiyati	248
<i>Imanov Baxtiyor Berdiyevich</i>	
Adabiyot va teatr san'ati vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarda ijobiy xulq-motivlarni shakllantirishda faollik markazlarining didaktik imkoniyatlari	253
<i>Inomova Dilnavoz Muzafar qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim muassasalari pedagog xodimlari mehnatini huquqiy tartibga solishning xususiyatlari	258
<i>Matekeyeva Bibinaz Mirjan qizi</i>	
Badiiy-estetik qadriyatlar va ularning o'ziga xosliklari	264
<i>Ostonova Gulrux Shuxrat qizi</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilariga sharq allomalarining kitobxonlikka munosabatini tarixiy yondashuv asosida o'rgatishning ijtimoiy-tarixiy, zamonaviy va pedagogik xususiyatlari	268
<i>Parpiyayeva Zulayho Rahimjon qizi</i>	
AI-Xorazmiyning ilmiy merosi vositasida talabalarda analitik tafakkurni rivojlantirishning metodologik asoslari	272
<i>Qaxxorova Shaxnoza Abduvasit qizi</i>	
Musiqiy-badiiy did tarbiyasining ilmiy nazariy asoslari	276
<i>Rayimova Gavhar Karim qizi</i>	



Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy-muloqot kompetensiyasini rivojlantirishda interfaol metodlardan foydalanish.....	279
<i>To'laboyeva Iqbolxon Olimjanovna</i>	
Malakaviy amaliyot orqali bo'lajak tarbiyachilarni kasbiy kompetentligini rivojlantiruvchi texnologiyalari....	282
<i>Tohirjonova Hulkaroy Baxodir qizi</i>	
Bolalar musiqa va san'at maktabi o'quvchilariga chang cholg'usida Shashmaqom kuylarini o'rgatishning pedagogik yondashuvlari.....	288
<i>Toshpo'lotova Zulxumor Davlatboy qizi</i>	
Talabalarda axborot madaniyatini shakllantirishning xususiyatlari	292
<i>Usmonov Sh. F.</i>	
The Formation of Human Capital In Education: A Pedagogical and Economic Analysis	297
<i>Uzoqova Shohida Mirzamurod qizi</i>	
“Птицы во рту” Саманты Швевлин: каннибализм нежности и зооморфный код магического реализма	302
<i>Каримов Зиёахмад Алишер угли</i>	
Формирование профессиональных качеств будущих учителей через активизацию учебной деятельности студентов с использованием дидактических игр в педагогических вузах.....	307
<i>Расулова Исмигуль, Якубова Зухра</i>	
Bolalar adabiyotini rivojlantirishda innovatsion yondashuv	311
<i>Mirzayeva Nigora Bozorovna</i>	
Issues of Developing Communicative Competence in Future Teachers from the Point of View of an Andragogical Approach.....	314
<i>Nishanova Mastura Khafizovna</i>	
Raqamli va innovatsion ta'lim texnologiyalari vositasida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida adabiy kompetensiyalarni rivojlantirish modeli.....	317
<i>Islomova Xafiza Azamatovna</i>	

BOLALAR MUSIQA VA SAN'AT MAKTABI O'QUVCHILARIGA CHANG CHOLG'USIDA SHASHMAQOM KUYLARINI O'RGATISHNING PEDAGOGIK YONDASHUVLARI

Toshpo'lotova Zulxumor Davlatboy qizi

Samarqand davlat pedagogika instituti
"Musiqqa ta'limi va san'at" mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya: Maqolada bolalar musiqa va san'at maktablari o'quvchilariga chang cholg'usida Shashmaqom kuylarini o'rgatishning pedagogik yondashuvlari tahlil qilinib, milliy musiqa merosini yosh avlodga yetkazishda samarali usullar, o'quvchilarning ijrochilik mahoratini rivojlantirish, ularning musiqiy tafakkurini shakllantirish hamda an'anaviy va zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish masalalari yoritilgan. Shuningdek, chang cholg'usining o'ziga xos xususiyatlari va Shashmaqom kuylarini o'zlashtirish jarayonida uchraydigan muammolar hamda ularni bartaraf etish yo'llari ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: chang cholg'usi, Shashmaqom, musiqa ta'limi, pedagogik yondashuv, ijrochilik mahorati, milliy musiqa, an'anaviy usullar, zamonaviy texnologiyalar, musiqiy tafakkur, o'quv jarayoni.

Abstract: This article analyzes pedagogical approaches to teaching Shashmaqom melodies on the chang instrument to students of children's music and art schools. In particular, it highlights effective methods of transmitting national musical heritage to the younger generation, developing students' performance skills, shaping their musical thinking, and applying both traditional and modern pedagogical technologies. The article also discusses the specific features of the chang instrument, the difficulties encountered in mastering Shashmaqom melodies, and ways to overcome them.

Key words: chang instrument, Shashmaqom, music education, pedagogical approach, performance skills, national music, traditional methods, modern technologies, musical thinking, educational process.

Аннотация: В данной статье анализируются педагогические подходы к обучению мелодиям Шашмакома на инструменте чанг учащихся детских музыкальных и школ искусств. В частности, рассматриваются эффективные методы передачи национального музыкального наследия молодому поколению, развитие исполнительских навыков учащихся, формирование их музыкального мышления, а также применение традиционных и современных педагогических технологий. Кроме того, освещаются особенности инструмента чанг, трудности, возникающие в процессе освоения мелодий Шашмакома, и пути их преодоления.

Ключевые слова: чанг, Шашмаком, музыкальное образование, педагогический подход, исполнительское мастерство, национальная музыка, традиционные методы, современные технологии, музыкальное мышление, учебный процесс.

KIRISH

Bugungi globallashuv sharoitida milliy madaniyat va san'atni asrab-avaylash hamda uni yosh avlodga yetkazish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, o'zbek mumtoz musiqa merosining nodir namunasi bo'lgan Shashmaqomni o'rganish va uni amaliy ijro orqali yoshlar ongiga singdirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan, bolalar musiqa va san'at maktablarida ta'lim olayotgan o'quvchilarga milliy cholg'ular, jumladan, chang cholg'usida maqom kuylarini o'rgatishning samarali pedagogik yondashuvlarini ishlab chiqish zarurati ortib bormoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda madaniyat va san'at sohasini rivojlantirish, yosh avlodni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash borasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan qabul qilingan bir qator qaror va farmonlarda musiqa ta'limini takomillashti-



rish, bolalar musiqa va san'at maktablari faoliyatini yanada rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Xususan, "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirish to'g'risida"gi^[5] farmon hamda "Bolalar musiqa va san'at maktablari faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi^[1] qarorlar bu borada muhim huquqiy asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Mazkur hujjatlarda o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, milliy musiqa merosini chuqur o'rganish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish orqali ta'lim sifatini oshirish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan. Shu bois, chang cholg'usida Shashmaqom kuylarini o'rgatish jarayonini ilmiy-pedagogik jihatdan asoslash, samarali metod va usullarni aniqlash bugungi kunning muhim ilmiy-amaliy masalalaridan biri hisoblanadi.

Maqom san'atining nazariy asoslari qadimiy ilmiy manbalarga borib taqaladi. Jumladan, maqom tushunchasi musiqa tizimining asosiy elementi bo'lib, u lad, parda va usul birligiga asoslanadi. Bu borada maqomlarning tarixiy rivoji va shakllanishi haqida Baxrom Madrimov o'z tadqiqotlarida batafsil ma'lumot berib, ularning Sharq musiqa madaniyatidagi o'rni beqiyos ekanligini ta'kidlaydi^[13].

Shashmaqom esa maqom tizimining mukammal ko'rinishi bo'lib, u o'z ichiga murakkab tuzilishga ega bo'lgan cholg'u va ashula yo'llarini qamrab oladi. Mashhur sozanda va akademik Yunus Rajabiy tomonidan notaga olingan "Shashmaqom" to'plami bu borada muhim manba hisoblanadi^[11]. Ushbu asarda maqom yo'llarining aniq tuzilishi, lad asoslari va ijro xususiyatlari ilmiy asosda yoritilgan.

Chang cholg'usi esa maqom ijrochiligida muhim o'rin tutuvchi cholg'ulardan biridir. Sirojiddin Begmatov va Murod Matyoqubov o'zlarining "O'zbek an'anaviy cholg'ulari" asarida chang cholg'usining tuzilishi, ijro texnikasi va tarixiy rivoji haqida batafsil ma'lumot beradilar^[10]. Ularning ta'kidlashicha, chang cholg'usi o'zining keng diapazoni va boy tembri bilan maqom kuylarini mukammal ifodalash imkonini beradi.

Shuningdek, maqom san'atining jahon miqyosidagi ahamiyati ham alohida e'tiborga loyiqdir. Tadqiqotchi Shavkat Raximov o'z ishlarida Shashmaqomni nafaqat milliy, balki jahon musiqa madaniyatining nodir namunasi sifatida baholaydi^[12]. Bu esa uni yosh avlodga o'rgatish zaruratini yanada kuchaytiradi.

Zamonaviy huquqiy asoslar ham ushbu yo'nalishni qo'llab-quvvatlaydi. Jumladan, 2021-yildagi "Madaniy faoliyat va madaniyat tashkilotlari to'g'risida"gi Qonunda milliy madaniyatni rivojlantirish va uni yoshlar ongiga singdirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan^[3]. Shuningdek, "O'zbekiston – 2030" strategiyasida ham madaniyat va san'at sohasini rivojlantirish, yosh iste'dodlarni qo'llab-quvvatlash masalalari alohida o'rin egallaydi^[4].

Yuqoridagi ilmiy va me'yoriy manbalarga tayangan holda aytish mumkinki, bolalar musiqa va san'at maktablarida chang cholg'usida Shashmaqom kuylarini o'rgatish kompleks yondashuvni talab qiladi. Bu jarayonda tarixiy meros, nazariy bilim, amaliy ijrochilik va zamonaviy pedagogik texnologiyalar uyg'un holda qo'llanilgandagina yuqori natijalarga erishish mumkin.

Maqom tushunchasi Sharq musiqa madaniyatining eng muhim nazariy va amaliy asoslaridan biri hisoblanadi. "Maqom" atamasi arabcha so'z bo'lib, "istiqomat o'rin", "turar joy" ma'nolarini bildiradi^[15]. Musiqiy ifoda sifatida esa u tovush pardalari, ya'ni kuy va ashulalarda tovushlarning joylashuv tizimini anglatadi. Shu jihatdan maqom - ma'lum lad asosiga tayangan, muayyan pardalardan boshlanadigan hamda o'ziga xos shakl va qonuniyatlarga ega bo'lgan kuy va ashulalar majmuasidir^[9].

Maqom san'ati juda qadimiy tarixga ega bo'lib, u IX–X asrlarda Yaqin va O'rta Sharq hududlarida shakllanib, rivoj topgan. Bu jarayonda Safiuddin al-Urmaviy, Qutbiddin Sheroziy, Abdurahmon Jomiy, Abdulqodir Marog'iy kabi mutafakkir olimlarning ilmiy merosi muhim o'rin tutadi. Ularning asarlarida maqom tizimi nazariy jihatdan asoslab berilgan bo'lib, "Duvozdax maqom" - o'n ikki maqom tizimi shakllangan. Mazkur tizim 12 maqom, 6 ovoza, 24 sho'ba va boshqa tarkibiy qismlardan iborat murakkab musiqiy tuzilmani o'z ichiga olgan^[14].

TAHLIL VA NATIJALAR

XVII asrdan boshlab mazkur tizim asta-sekin o'zgarib, uning negizida mahalliy musiqa maktablari shakllana boshladi. Natijada XVIII asr o'rtalariga kelib, Buxoro madaniy muhitida Shashmaqom mukammal tizim sifatida qaror topdi. Shashmaqom oltita asosiy maqomdan - Buzruk, Rost, Navo, Dugoh, Segoh va Iroqdan iborat bo'lib, u 250 dan ortiq kuy va ashula namunalarini o'z ichiga oladi. Har bir maqom ikki yirik bo'limdan tashkil topgan: cholg'u bo'limi - "Mushkilot" va ashula bo'limi - "Nasr".

Shashmaqomning cholg'u bo'limi ayniqsa murakkab tuzilishga ega bo'lib, unda tasnif, tarje', gardun, muhammas va saqil kabi asosiy qismlar mavjud. Ushbu kuy yo'llari o'zining murakkab ritmik va lad xususiyatlari bilan ajralib turadi. Shu bois ularni o'quvchilarga o'rgatishda maxsus metodik yondashuv zarur bo'ladi.

Bolalar musiqa va san'at maktablarida chang cholg'usida Shashmaqom kuylarini o'rgatish jarayoni bir necha muhim pedagogik tamoyillarga asoslanadi.

Avvalo, ta'lim jarayonida izchillik va bosqichma-bosqichlik prinsipi muhim ahamiyatga ega. O'quvchilar dastlab oddiy kuylar va lad tizimlari bilan tanishtirilib, keyinchalik murakkab maqom yo'llariga o'tiladi. Bu jarayonda o'quvchilarning yosh xususiyatlari, musiqiy eshitish qobiliyati va texnik tayyorgarligi inobatga olinadi.

Ikkinchidan, amaliy ijrochilik bilan nazariy bilimlarning uyg'unligi ta'minlanishi lozim. Ya'ni o'quvchilar maqomning lad tuzilishi, usul (ritm) tizimi, shakliy xususiyatlari haqida nazariy bilimga ega bo'lishi bilan birga, ularni amalda cholg'uda ifodalay olishi zarur. Bu esa ularning musiqiy tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Uchinchidan, an'anaviy ustoz-shogird uslubidan samarali foydalanish muhimdir. Maqom san'ati asrlar davomida aynan shu yo'l bilan avlodan-avlodga o'tib kelgan. Shu sababli o'qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki ijro namunasi ko'rsatuvchi ustoz sifatida ham faoliyat yuritishi lozim.

To'rtinchidan, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash orqali ta'lim samaradorligini oshirish mumkin. Audio va video yozuvlar, interaktiv dars usullari, individual va guruh mashg'ulotlari orqali o'quvchilarning qiziqishini oshirish hamda murakkab maqom yo'llarini osonroq o'zlashtirishga erishiladi.

Chang cholg'usi imkoniyatlari ham Shashmaqomni o'rgatishda alohida ahamiyat kasb etadi. Uning keng diapazoni va tembr boyligi maqom kuylarining nozik ohanglarini ifodalash imkonini beradi. Shu bois o'quvchilarga texnik mashqlar bilan bir qatorda, ifodaviylik, dinamika va badiiy talqin ustida ishlash ham o'rgatilishi zarur.

"Chang" - ko'p torli tirnama cholg'u asbobi. O'zbekistonda ishlatiladigan zamonaviy chang turi trapetsiya shaklidir. Chang tayoqchalar bilan urib chalinadi ^[15]. Chang - o'zbek xalqining qadimiy va o'ziga xos cholg'ularidan biri bo'lib, u Shashmaqom ijrochiligida muhim o'rin egallaydi. Ushbu cholg'u Sharq xalqlari musiqa madaniyatida keng tarqalgan bo'lib, uning ildizlari qadimgi davrlarga borib taqaladi. Chang nafaqat o'zbek, balki tojik, uyg'ur, eron va boshqa Sharq xalqlari musiqa amaliyotida ham uchraydi.

Chang cholg'usi trapetsiya (yassi to'rtburchak) shaklida bo'lib, uning ustiga ko'plab torlar tortilgan bo'ladi. Torlar maxsus kichik "cho'pcha"lar yordamida urib chalinadi. Shu jihati bilan chang boshqa torli cholg'ulardan farq qiladi. Uning tovushi jarangdor, mayin va boy tembrga ega bo'lib, murakkab kuylarni ifodalash imkonini beradi.

Chang cholg'usining tuzilishi bir necha asosiy qismlardan iborat: rezonator qutisi (korpus), torlar, tirgaklar va sozlash mexanizmlari. Har bir tor ma'lum bir parda (nota)ga moslab sozlanadi. Bu esa maqom kuylarining lad tizimini aniq ifodalash imkonini beradi. Chang cholg'usining diapazoni keng bo'lib, u past, o'rta va yuqori registrlarda erkin ijro etish imkonini beradi.

Tarixiy manbalarga ko'ra, chang cholg'usi qadimdan saroy musiqa ansambllarida va xalq orasida keng qo'llanilgan. Ayniqsa, maqom ijrochiligida u yetakchi cholg'ulardan biri sifatida shakllangan. An'anaviy ravishda maqom ansambllarida tanbur, doira bilan bir qatorda chang ham muhim rol o'ynagan.

Pedagogik nuqtai nazardan qaraganda, chang cholg'usida ijro etish o'quvchilardan yuqori darajadagi koordinatsiya, eshitish qobiliyati va texnik mahoratni talab qiladi. Ijro jarayonida ikkala qo'lning uyg'un harakati, zarbning aniqligi va tezligi muhim ahamiyatga ega. Shu bois boshlang'ich bosqichda o'quvchilarga oddiy mashqlar, torlarni to'g'ri urish texnikasi va ritmik hisni rivojlantirishga qaratilgan topshiriqlar beriladi.

Chang cholg'usining yana bir muhim xususiyati – uning ifodaviy imkoniyatlarining kengligidir. U orqali nafaqat oddiy kuylar, balki murakkab Shashmaqom yo'llari ham nozik ohanglar bilan ijro etilishi mumkin. Dinamika – baland-pastlik, temp o'zgarishlari, zarb usullari orqali ijrochi kuy mazmunini chuqur ochib bera oladi.

Chang cholg'usi o'zining boy tarixiy ildizlari, murakkab tuzilishi va keng ijro imkoniyatlari bilan o'zbek milliy musiqa san'atining ajralmas qismi hisoblanadi. Uni o'rganish va o'rgatish jarayoni esa o'quvchilarning musiqiy didi, texnik mahorati va milliy qadriyatlarga bo'lgan hurmatini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bolalar musiqa va san'at maktablarida o'quvchilarga Shashmaqom kuylarini chang cholg'usida o'rgatish o'ziga xos murakkab va ko'p qirrali pedagogik jarayon hisoblanadi. Ushbu jarayon nafaqat ijrochilik ko'nikmalarini shakllantirish, balki o'quvchilarda milliy musiqiy tafakkur va ijodiy yondashuvni rivojlantirishni ham nazarda tutadi. Shu bois bu borada ilmiy asoslangan, izchil va samarali pedagogik yondashuvlarni qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi.

Misol sifatida, o'quvchiga "Navo" maqomining oddiy kuy yo'li o'rgatilayotganda dastlab sekin tempda texnik to'g'rilik ustida ishlanadi, so'ngra asta-sekin tezlik oshirilib, ifodaviylik elementlari qo'shiladi. Shu tarzda o'quvchi nafaqat kuy chalishni, balki uni his etib ijro etishni o'rganadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Bolalar musiqa va san'at maktablarida chang cholg'usida Shashmaqom kuylarini o'rgatish ko'p qirrali pedagogik yondashuvlarga asoslanadi. Ushbu yondashuvlarning uyg'un qo'llanilishi o'quvchilarning ijrochilik mahoratini oshirish, milliy musiqa merosiga hurmat ruhida tarbiyalash va ularning ijodiy salohiyatini rivojlantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Chang cholg'usida Shashmaqom kuylarini o'rgatish murakkab, ammo samarali pedagogik yondashuvlarni talab etadigan jarayon bo'lib, u o'quvchilarning nafaqat ijrochilik mahoratini, balki milliy musiqiy tafakkurini ham rivojlantirishga xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Bolalar musiqa va san'at maktablari faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha 2016–2020-yillarga mo'ljallangan Davlat dasturi to'g'risida" 2015-yil 20-noyabrdagi PQ-2435-son Qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Bolalar musiqa va san'at maktablari to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi Qarori. Toshkent, 2016-yil 5-may, 144-son.
3. O'zbekiston Respublikasining "Madaniy faoliyat va madaniyat tashkilotlari to'g'risida"gi Qonuni. O'RB-668-son, 2021-yil 21-yanvar.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida PF-158-son Farmoni. 2023-yil 11-sentabr.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-112-son Qarori. 2022-yil 2-fevral.
6. Mirziyoyev Sh.M. "O'zbek milliy maqom san'atini yanada rivojlantiruvchi chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori. 2017-yil, 17-noyabr.
7. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 10-tom. Davlat ilmiy nashriyoti. -T.: 2001-yil.
8. Abdullayev R. O'zbek mumtoz musiqasi. -T.: Yangi nashr, 2008-yil.
9. Akbarov I. "Musiqalug'ati", -T.: "O'qituvchi".. 1987-yil.
10. Begmatov S., Matyoqubov M. O'zbek an'anaviy cholg'ulari. —T.: Yangi nashr 2008-yil.
11. Shashmaqom. Notaga oluvchi Yunus Rajabiy. -T.: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1166-1975-yil.
12. Raximov Sh. Shoshmaqom jahon miqoyosidagi musiqa madaniyati merosimiz.-Samarqand, "Zarafshon" nashriyoti, 2016-yil.
13. Madrimov B.X. "O'zbek musiqa tarixi", -T.: "Barkamol fayz media", 2018-yil
14. Muhammadova O. An'anaviy xonandalik. Samarqand., 2024-yil.
15. <https://uz.wikipedia.org/>

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №4(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.